

ARAB VA O'ZBEK TILLARIDA KO'PLIK MASALASI

Toshbotirova Mubinoxon Quadratjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,

O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi.

toshbotirovam6@gmail.com +998933014550<https://doi.org/10.5281/zenodo.17517530>

Annotatsiya. Til - ijtimoiy hodisa. Til – aloqa shakli. Tilning rivojlanishida, lug'at boyliklarining ko'payishida, albatta, o'zlashma so'zlarning o'rni katta. Dunyo tillari jadvalida hech qanday til yo'qki, o'zlashma so'zlar mavjud bo'lmasa. Xususan, o'zbek tilining badiiy so'z qatlamini qamrab olgan aksariyat so'zlar bizga arab tilidan kirib kelgan. Tabiiyki, so'zlarning bir tildan boshqa tilga o'tish jarayonida ma'lum bir o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Ushbu maqolada ana shu o'zgarishlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: badiiy so'zlar, o'zlashma so'zlar, arabcha so'zlar, so'zdagi o'zgarishlar, birlik va ko'plik ma'nosidagi so'zlar.

Аннотация. Язык является социальным явлением и формой общения. Заимствованные слова выполняют большую роль в развитии языка и увеличения словарного запаса. Ни один язык в мире, не существует без заимствованных слов. В частности, большая часть слов, касающиеся художественной литературы в узбекском языке, пришла к нам из арабского языка. Естественно, при переходе слов с одного языка на другой происходят определенные изменения. Эта статья рассматривает эти изменения.

Ключевые слова: множественное число, заимствованные слова, арабские слова, словосочетания, единственное слово.

Abstract. Language is a social phenomenon. Language is a form of communication. In the increase of vocabulary, of course, the role of assimilated words is great. There is no language in the world languages table if there are no master words. In particular, most of the words that cover the artistic layer of the uzbek language came to us from the arabic language.

Naturally, certain changes take place during the transition of words from one language to another. This article discusses these changes.

Keywords: Art words, assimilation words, arabic words, word changes, words with singular and plural meanings.

O'zbek tili juda boy va qadimiy tillar sirasiga kiradi. Ma'lumki, til biron bir qolipga solib bo'linmas, o'zgaruvchan ijtimoiy hodisadir. Tilning o'zgarishidagi eng katta omillardan biri esa tashqi muhit ta'siridir. Jamiyat rivojlangani sari til ham rivojlanaveradi (Xolmonova Z, 2007 15-18b). Tilning me'yorlashgan, umumiy, hamma uchun chunarli shakli adabiy tildir.

Adabiy til har bir davlatning o'tmishini, hozirini va kelajagini belgilab beruvchi, jamiyatning ajralmas bo'lagi hisoblanib, ma'lum bir xalq vakilining shu tilda muloqot qilishi, rasmiy hujjatlarning shu tilda yuritilishi, ta'limning davlat tilida olib borilishi, ommaviy axborot vositalarining shu tilda faoliyat yuritishi kabi jihatlar bilan belgilanadi hamda davrlar o'tishi bilan mazkur til shu xalq vakillarining ehtiyojlaridan kelib chiqib muntazam yangilanib boradi (Toshbotirova S, 2019, 9-10 bet).

O'zbek adabiy tilining katta qismini arab tilidan o'zlashgan so'zlar egallaydi.

Misol uchun: ta'lim "تعليم", kitob "كتاب", qalam "قلم" muallim "معلم", maktab "مكتب", madrasa "مدرسة", mudarris "مدرس", tarbiya "تربية" va hokazo

(Hasanov M, 2012, 5-6 bet). Arablar O'rta Osiyoga olib kelgan islom dinining muqaddas kitobi bo'lmish Qur'oni karim va hadislarning arab tilida ekanligi arab tilining xalq orasida tez tarqalishi va ommaviylashishiga asosiy sabablardan biridir.

Shu bilan birga Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad Yassaviy, Lutfiy, hazrat Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab va yana bir qancha buyuk ajdodlarimizning qo'l yozmalarida, qimmatbaho asarlarida arab tiliga mansub so'zlarning mavjudligi arabcha so'zlarining badiiy so'z qatlamiga kirib kelishiga asosiy sabablardan biri bo'lgan.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, arabcha so'zlar nafaqat badiiy uslubdagi so'zlarda, balki, ilmiy, rasmiy, publitsistik uslubdagi so'zlar orasida ham keng tarqalgan. Misol uchun: majlis "مجلس", rais "رئيس", kotib "كاتب", jumhuriyyat "جمهورية" va hokazo.

Adabiyotimizdagi aruz ilmi va she'riy san'at turlaridagi deyarli barcha atamalar arab tilidagi so'zlardan iborat. Masalan: Aruz ilmidagi "vasl" so'zi "وصل" [vasola] "ulamoq, bog'lamoq" fe'lining o'zkalaridan, "maqtu" so'zi "قطع" [qotoa'] "kesmoq" fe'lining o'zaklaridan hosil bo'lgan. Shu bilan bir qatorda, she'riy san'at atamalaridagi so'zlar: tazod "ضد" [zidd] "zid, teskari, qarshi", ta'did "عد" [a'dda] "sanamoq" fe'lining o'zaklaridan, tajnis "جنس" [jannasa] ya'ni "bir jinsli qilmoq, bir xil yangraydigan qilmoq" felining o'zaklaridan olingan (To'xtarov A, 2014, 250-370 bet). Shu qatorda yana bir qancha so'zlarni bunga misol qilib keltirish mumkin.

Yuqorida aytib o'tilganidek, bir tildan boshqa tilga o'zlashgan so'zlarda ayrim o'zgarishlar sodir bo'ladi. Misol tariqasida shuni aytish mumkinki, biz birlik sifatida ishlatadigan ba'zi so'zlar asli arab tilida ko'plik ma'nolarni ifodalaydi.

Masalan: Insonning fe'l-atvori, uning xarakterini ifodalovchi "axloq" "اخلاق" [axlaq] so'zi aslida arab tilida "خلق" [xulq] "xulq" so'zining ko'plik shakli hisoblanadi lekin, biz bu so'zga nisbatan birlik shaklidagi so'z deb qaraymiz yoki, karomatli shaxs ma'nosida qo'llanuvchi "avliyo" "ولي" [avliyyau] so'zi ham aslida arab tilidagi "ولي" [valiyy] "valiy" so'zining ko'plik shakli hisoblanadi. Hamda, asosan rasmiy uslubda qo'llanuvchi "huquq" "حقوق" [huquq] so'zi ham arab tilidagi "حق" [haqq] "haq" so'zining ko'plik shaklidir. Yana bir misol, ma'lum bir belgilangan yer ma'nosidagi "hudud" "حدود" so'zi arab tilidagi "حد" [hadd] ya'ni chegara so'zining ko'plik shakli hisoblanadi. Badiiy asarlarda uchraydigan "tujjor" "تجار" [tujjar] va "kavokib" "كواكب" [kavakib] so'zlarini ham ko'p kuzatganmiz. Bu so'zlar ham "tاجر" [tajir] ya'ni "savdogar", "tojir" va "كوكب" [kavkab] "yulduz" so'zlarining ko'paytmasidir. Holat ma'nosidagi "ahvol" "احوال" [ahval] so'zi esa "حال" [hal] "hol" so'zining ko'plik shakli bo'lishiga qaramay biz bu so'zni birlik ma'noni ifodalovchi so'z deb tushunamiz. Eng qiziq o'zgarishga misol qilib esa "axborot" so'zini keltirish mumkin chunki bu so'z "خبر" [xobar] "xabar" so'zining ko'pligi "اخبار" [axbar] so'ziga yana bir to'g'ri muannas ko'plik yasovchi qo'shimcha "ات" qo'shilishi orqali yasalgan, natijada esa xabarlar so'zining yana bir qatra ko'plik shakli yuzaga kelgan.

Xulosa qilib aytganda, har bir tilning boyishida o'zlashma so'zlar asosiy vazifani bajarganidek o'zbek adabiy tilining rivojlanishida ham, arab tilining o'rni katta. Arab tilining tilimizga o'zlashish jarayonida esa ayrim o'zgarishlar ro'y bergan. Bunga misol tariqasida esa yuqoridagi biz birlik ma'noda ishlatadigan so'zlar aslida arab tilida ko'plik ma'nolarni ifodalashini keltirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xolmonova Z. Tilshunoslikka kirish. - Toshkent, 2007.
2. Toshbotirova S. O'zbek tilida arab tilidan o'zlashgan so'zlarning o'rni. Toshkent, 2019.
3. Hasavov M., Abzalova M., Arab tili darslari. Darslik.- Toshkent: Nihol, 2012.
4. To'xtarov A. Ana'iyim ul-kabir arabcha-o'zbekcha lug'at.- Namangan: Namangan, 2014.